

## ISLOM MOLIYASINING AN`ANAVIY KAPITAL BOZORIGA TA`SIRI

Shukurjon Xolmatjonov Xakimjon o`g`li  
TDIU magistranti

**Anotatsiya:** Maqolada islom moliyasi va uning instrumentlari, ularning kapital bozoriga bo`layotgan ta`siri, jahon bozori konyukturasi barqarorlashishi orqali islom moliyasi instrumentlaridan foydalanish ko`rsatkichlari o`zgarish holati va O`zbekistonda mazkur ko`rsatkich darajasi o`rganilgan.

**Kalit so`zlar:** islom moliyasi, kapital bozori, globallashuv, pul, kredit, kapital, islom banki, murobaha, mushoraka, sukuk.

### Kirish

Inson dunyoda yashar ekan jamiyat bilan turli ko`rinishlardagi munosabatlarga kirishadi va shu shu munosabatlarda o`z ehtiyoj va manfaatlari yuzasidan turli xil tanlov va qarorlarni qabul qilishiga to`g`ri keladi. Shulardan biri iqtisodiy munosabatlardagi qaror va tanlovlar bo`lib bunda uning tanlov va qarorlariga ta`sir etuvchi omil bo`lib e`tiqod masalasi o`rtaga chiqadi. Ixtiyoriy dinda ma`lum darajadagi belgilangan tartib-tamoyil, shartlar mavjud bo`lib inson ana shular o`rtasida o`zi uchun eng ma`qul variantni tanlaydi. Islom diniga amal qiluvchi musulmonlar shariat belgilagan qonun-qoidalar asosida oldi-sotdi, pulli munosabatlar, tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshiradi.

### Adabiyotlar tahlili

Iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishda iqtisodiy ta`lim tarbiyaning tarixiy ildizlari islom dini qoidalari, buyuk ajdodlarimizdan meros bo`lib qolgan o`lmas asarlar bizga bebaho manba bo`lib xizmat qiladi. Islom ta`limotidagi iqtisodiy g`oyalar kishilik jamiyatining faoliyat turlaridan biri iqtisodiyot sohasidagi munosabatlar muhim o`rin tutadi.

Renat Ivanovich Bekkin islom iqtisodiyoti modelining o`ziga xos jihatini u insonlarning moddiy ehtiyojlaridan tashqari ruhiy, ma`naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini ham inobatga olishi va shu sababli erkin bozor qonunlarini umuman olganda ma`qullasada, jamiyat manfaatlarini ta`minlash, hamda bozorda yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan bema`nilik va adolatsizlikni oldini olish maqsadida muayyan ma`naviy-axloqiy chegaralar o`rnatilishi bilan izohlagan[1].

Islom moliyasi bo`yicha dunyodagi yetakchi olimlardan bo`lgan Muhammad Taqiy Usmoniy "Islom moliyasiga kirish" asarida "Moliyaviy faoliyatdan foiz stavkalarini istisno qilish moliyachining daromad ololmasligini anglatmasligi aniq. Agar moliyalashtirish tijorat maqsadlarida nazarda tutilgan bo`lsa, u foyda va zararni taqsimlash kontseptsiyasiga asoslanishi zarur. Bu vaziyatda musharaka va mudoraba islom savdo huquqi o`rtaga chiqadi. Biroq, ba`zi sohalarda musharaka yoki mudoraba asosida moliyalashtirish u yoki bu sabablarga ko`ra amalga oshirilmasligi mumkin yoki amalga oshirib bo`lmaydigan tarmoqlar mavjud. Bunday sohalar uchun zamonaviy olimlar murabaha, ijara, salom yoki istisno kabi moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo`lgan boshqa vositalarni taklif qilishdi.[2]"



O`zbekistonlik yosh olim, Islom moliyasi bo`yicha mutaxassis Sirojiddin Abrorov o`zining “Islom moliyasi: O`zbekiston uchun yangi imkoniyatlar” maqolasining hulosasida quyidagilarni keltiradi “Jamiyat talabi islom moliyasining, ayniqsa, sukuk bozorining shakllanishi va rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Moliya tizimida islomiy moliya allaqachon alohida sektor sifatida shakllangan va shariatdagi mavjud savdo qoidalari zamonaviy islom moliya tizimining asosiga aylangan. Bugungi kunda bu tizim hatto musulmon aholisi kam bo`lgan mamlakatlarda ham samarali qo`llanilmoqda. Islomiy moliyaviy vositalar va mahsulotlarni joriy etgan dualistik mamlakatlar tajribasidan kelib chiqadigan xulosa shuki, islomiy moliya jamiyatga iqtisodiy o`sinh va samaradorlikni olib keladi, an'anaviy moliya tizimi bilan teng sharoitlarda raqobatlashadi. Islomiy moliyalashtirish vositasi bo`lgan sukuk emissiyasining ortishi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini ko`rsatmoqda”[3].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur maqolada islom moliyasi instrumentlaridan foydalanishning O`zbekiston iqtisodiyotiga ta`siri, imkoniyatlarini tahlil qilishda tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez kabi metodlardan foydalanilgan

### **Tahlil va natijalar muhokamasi**


Islom moliyasi – bu pul mablag`laridan foydalanish va taqsimlash jarayonida Islom huquqi qoidalariga mos keluvchi iqtisodiy munosabatlarni o`z ichiga oladigan Islom ekotizimining bir qismidir. Masalan, Islom dinida qarz berish yoki olish evaziga foyda ko`rish taqiqlangan, barcha moliyaviy jarayonlar esa haqiqiy iqtisodiy faoliyatga asoslangan bo`lishi kerak. Odamga zarar yetkazishi mumkin bo`lgan sohalarni moliyalashtirishga ruxsat berilmaydi – masalan, qimor o`yinlari, alkogol, tamaki mahsulotlari va boshqalar.

Islom iqtisodiyotining mohiyati ma`naviy mas`ul bozor iqtisodiyoti tizimini yaratishdan iborat. Uning o`ziga xos jihatlaridan biri shaxsning va jamiyatning maishatini emas, balki haqiqiy ehtiyojlarini qondirishdir. Islom iqtisodiyoti modeli boyliklarning jamiyat ichida adolatli taqsimlanishiga alohida e`tibor qaratadi, busiz ijtimoiy barkamollik (uyg`unlik) va iqtisodiy o`sinhni ta`minlash mumkin emas, deb hisoblaydi. Islom iqtisodiyotining asosiy qadriyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- islom ma`naviy qadriyatlariga asoslangan iqtisodiy farovonlik;
- teng huquqlilik va xavf-xatarlarni taqsimlash;
- odob-axloq qoidalariga rioya qilish va diniy bag`rikenglik.

Islomiy moliya tarmog`i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o`zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Islomiy moliya atamasi mahsulot va xizmat turlarining keng doirasini o`z ichiga oladi. Islom moliyasi va bankining umumiy amaliyotlari islom dinining o`rnatilishi bilan birga paydo bo`ldi. Biroq, institutsional islom moliyasi XX asrdan keyin tashkil etilgan.


**Qardus** nashrining ma`lumot berishicha, ayni paytda islom moliya sektori yiliga 15 foizdan 25 foizgacha o`sib bormoqda, islom moliya institutlari esa dunyo bo`ylab umumiy qiymati **2,7 trillion dollardan** ziyod aktivlarni boshqarmoqda.[4]



## 1-rasm. Islom moliyasi aktivlarining o'sib borish tendensiyasi<sup>64</sup>

2020-yil natijalariga ko'ra Islomiy moliyaning jahon bozoridagi ulushi ijobiy sur'atda davom etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,7% o'sish sur'atini qayd etdi. Bu birinchi navbatda islom banki faoliyati, shuningdek, kapital va kapital bozorlaridagi kuchli natijalar bilan izohlanadi:

- Islom banki: yillik 4,3% o'sish bilan jami aktivlarning o'sishi 248 milliard AQSh dollari, xususan o'sishning eng yuqori ko'rsatkichi Saudiya Arabistoni va Eron kabi eng yirik islom bozorlarida.
- Kapital bozorlari: yillik o'sish 26,9%
- Islomiy sug'urta (Takaful): yillik o'sish sur'ati 10% . Bu natija COVID-19 sabab global moliyaviy pasayishga qaramay 2019-yilda jami aktivlar hajmidan 51 milliard dollarga oshgan.
- Bugungi kunda Islom moliyasi eng yaxshi yo'lga qo'yilgan uchta davlat Saudiya Arabistoni, Eron, Malayziya ko'rsatkichlar ko'lami bo'yicha global bozor hajmining 66 foiziga egalik qiladi.[5]



## 2-rasm. Islom moliyasining global bozor hajmi, davlatlar kesimida.<sup>65</sup>

<sup>64</sup> <https://www.statista.com/statistics/1090815/worldwide-value-of-islamic-finance-assets/>

<sup>65</sup> Islommoliyasi.uz



2016-yilgi hukumat almashinuvidan keyin dinga boʻlgan munosabatning oʻzgarishi natijasida Oʻzbekiston aholisida islom moliyasi instrumentlaridan foydalanish boʻyicha oldinga siljish kuzatildi. Jumladan Prezident Sh.Mirziyoyev Islom moliyasi haqida shunaday fikr bildirgan «Islom olami ulkan iqtisodiy, investision salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan toʻgʻri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga aʼzo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investision hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yoʻllarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot koʻrsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos boʻlib xizmat qiladi»[6].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni parlamentga qilgan Murojaatnomasida Oʻzbekistonda islomiy moliya konsepsiyasini oʻz ichiga olgan qonun loyihasini ishlab chiqish rejalashtirilganini aytib oʻtgan[7].

Oʻzbekistonda «Islom bank ishi va moliyasi» tashkiloti (AlHuda) oʻtkazgan tadqiqotlarga koʻra[8], MDH mamlakatlarida islom moliya sanoatining oʻsishi boshqa davlatlarga qaraganda sekinroq, ammo bu mintaqada imkoniyatlarning ortib borayotgani tufayli jahon xalqaro bank sanoatining eʼtiborini tortmoqda. MDH davlatlari hukumatlari ushbu sektorni rivojlantirish boʻyicha tashabbus koʻrsatsa, keyingi besh yil ichida islom banki ishi sezilarli darajada oʻsadi.

Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston va Oʻzbekiston MDHda islom banki va moliyasining bu kengayishida yetakchilik qiluvchi asosiy oʻyinchilar boʻlishi mumkin, deyiladi bayonotda. Bugungi kunda Oʻzbekistonda islom moliyasiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Oʻzbekiston-Markaziy Osiyoning 35 million ortiq aholiga ega muhim davlati, aholisining 93 foiz qismi musulmonlardir. U nafaqat gaz, neft va boshqa tabiiy resurslarga boy, balki azaldan ham ilm va islom dinining markazlaridan biri boʻlib kelgan.[9]

Dastlab, 2003 va 2004-yillarda Oʻzbekiston Islom Taraqqiyot Banki (IDB) va xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasiga (ICD) aʼzoli orqali islom moliyasini tan olish yoʻlida muhim qadamlar qoʻydi. Bu institutlar va hukumat oʻrtasidagi barqaror aloqalar islomiy moliyaga ushbu bozorga kirish nuqtasini qoʻlga kiritish imkonini berdi.

Oʻzbekiston aholisining 93 foizi musulmonlar, ammo Islom Taraqqiyot Banki (IDB) va xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi (ICD) dan boshqa hech qanday mahalliy yoki islom banki va kapital bozorlari xizmatlarini taklif etuvchi xorijiy muassasalar mavjud emas. 9 dan ortiq banklar Mudarabah bazasida xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasidan islom bankini yoʻlga qoʻyish uchun grant olgan boʻlsa-da, lekin shariat asosida ishlash imkonini beruvchi qonunlar qabul qilinishini kutmoqda. Markaziy bank Nizomida koʻrsatilgan talablarga javob bersa Xorijiy muassasalarning Oʻzbekistonda roʻyxatdan oʻtmasdan bozorga kirishiga toʻsqinlik qilmaydi.[10]

2019-yil may oyida Respublikamiz hukumati muqobil moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, bank, moliyaviy xizmatlar koʻlamini kengaytirish va Yaqin Sharqdan islom investorlari uchun eshiklarni ochish maqsadida islom banki va moliyasi uchun infratuzilmani yaratish toʻgʻrisidagi qaror loyihasini qabul qildi. Mamlakatimizda Islom moliya sanoatining uzoq muddatli va qisqa muddatli likvidlik va investitsiya talablarini qondirish uchun turli muddatdagi sukuk (Islom obligatsiyalari) emissiyasini joriy etishni rejalashtirmoqda. Koʻpgina taʼlim muassasalarimiz oʻzlarining yuqori kurs



talabalariga Islom moliyasi bo'yicha ta'lim berishni boshladi. Ko'pgina sug'urta va lizing kompaniyalari ham mamlakatdagi islomiy moliya bozori ehtiyojlarini qondirish uchun takaful va ijara operatsiyalarini yo'lga qo'yish ustida ishlamoqda.

Savdo-sanoat palatasining BMTTD (Birlashgan millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi) bilan o'tkazgan tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatdiki, so'rovda qatnashgan biznes vakillarining 38 foizi va jismoniy shaxslarning 56 foizi an'anaviy banklardan diniy e'tiqodlari sababli kredit olishmaydi. Shu tariqa, Islom qoidalariga rioya qiladigan moliya tashkilotlariga talab paydo bo'lmoqda. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining baholashiga ko'ra, Islom moliyasini joriy etish budjetga qo'shimcha 100 mln dollar foyda keltiradi. Shu bilan bir qatorda, ITB mamlakatimiz iqtisodiyotiga faol ravishda sarmoya kiritib bormoqda. Masalan, joriy yilning sentabr oyida Islom taraqqiyot banki Surxondaryoda IES qurilishi va transport infratuzilmasi uchun O'zbekistonga 200 mln dollardan ortiq mablag' ajratdi [11]. Lekin, O'zbekiston aholisi uchun ushbu sohaning yanada tezroq rivojlanishi va Islom banklarining paydo bo'lishiga huquqiy-me'yoriy asosning yetishmasligi, soliq va boshqaruv infratuzilmasining yo'qligi, shuningdek, aholi orasida ayniqsa Islomiy moliyalashtirishga aloqador moliyaviy savodxonlikning pastligi xalaqit bermoqda. Samarqandda o'tkazilgan iqtisodiy forumda Xalqaro islom savdo moliya korporatsiyasi bosh operatsion direktori Nazeem Noordali ta'kidlab o'tdiki "O'zbekistonga hali islomiy moliya chuqur kirib bormadi. Islomiy moliyalashni chakana savdo va boshqa barcha sohalarga kirib borishiga qonunchilik imkoniyat berishi kerak. Bunga iqtisodiyotning alternativ imkoniyati sifatida qarash lozim. O'zbekistonda islomiy moliya yo'lga qo'yilsa, katta natijalarga erishish mumkin. Aytish kerakki, mamlakat bu tizimni joriy etsa, mintaqada islomiy kapital bozori uchun regional markazga aylanish ehtimoli katta. Chunki aholining aksariyat qismi musulmonlar"[12].

Afsuski, Global Islamic Fintech`ning 2022 yil uchun yillik hisobotida islomiy Fintech kompaniyalarning 375 talik ro'yxatida O'zbekistondan faqatgina bitta tashkilot ro'yxatga olingan.[13]

IdealRatings	United States	Business Intelligence	idealaratings.com
iFarmer	Bangladesh	Raising Funds	ifarmer.asia/farms?shariah=true
IFIN Services WLL	Bahrain	Alternative Finance	ifin-services.com
IGrow.asia	Indonesia	Raising Funds	igrow.asia
ila Bank	Bahrain	Deposits and Lending	ilabank.com
IMAN	Uzbekistan	Raising Funds	iman.uz/invest/en
INAIA	Germany	Wealth Management	inaia.de
IndiaZakat	India	Social Finance	indiazakat.com/
Infinity Blockchain Ventures	Thailand	Enabling Technologies	infinityblockchain.ventures
Insha	Germany	Deposits and Lending	getinsha.com
InvesProperti	Indonesia	Raising Funds	invesproperti.id


### 3-rasm. Global Islamic Fintech`ning 2022 yil uchun yillik hisobotida islomiy Fintech kompaniyalarning ro'yxati<sup>66</sup>

Bu IMAN Invest bo'lib, O'zbekistonda islomiy instrumentlar orqali xizmatlarini ko'rsatuvchi FINTECH hisoblanadi. Ochiq ma'lumotlarga asosan bugungi kunda Battery Road, Tesla Capital (umumiy hisobda \$350 000), Uzcard Ventures va Uzcard VC (\$160

<sup>66</sup> Global Islamic Fintech Report 2022

000), Le Mercier's va MyAsia (\$45 000), Umay Angels Club hamda Block 0 (\$70 000) venchur fondlari IMAN`ga sarmoya kiritgan.

Kompaniya mablag`larni kapital egalaridan jalb qilib, bu mablag`larni savdoga yo`naltiradi va lo`rilgangan foydani mulk egalari o`rtasida teng taqsimlaydi. Shunga ko`ra kompaniya Islomiy moliyalashning hamma talablariga javob beradi. 2022-yilning 3 choragi uchun taqdim etilgan moliyaviy hisobotda joriy yilning avgust oyida kompaniya 8,4 milliard so`mdan ortiq mablag` jalb qildi, bu esa investitsiyalarning 35 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, reinvestitsiya qilingan dividendlardan yanada ko`proq daromad olish imkoniyati ko`rsatilgan.[14]



#### 4-rasm. IMAN Invest kompaniyasining 2022-yilning 3 choragi uchun taqdim etilgan moliyaviy hisoboti<sup>67</sup>

Tahlil shuni ko`rsatadiki, investor oylik dividendlarini chiqarib olmasdan, ularni reinvestitsiya qilsa, yillik daromad 28.8% emas, balki 32,06% gacha oshishi mumkin. Bu ko`rsatkich kapital egalarining olgan foydasi ham savdo faoliyatiga yo`naltirilishi natijasida vujudga keladi.

Dunyodagi globallashuv, ohirgi yillardagi islohotlar, jahon bozoriga integratsiyalashish jarayoni, dunyoda yuzaga kelayotgan ssiyosiy jarayonlarda ham O`zbekiston yuqori iqtisodiy potensialga ega. Jumladan qo`shni mamlakat Afg`onistonda hokimiyatga Tolibonning kelishi fonida mamlakatimiz qator savdo-iqtisodiy shartnomalar orqali tovarlar va xizmatlar eksportini amalga oshirib kelyapti. 2022-yilning yanvar oyida O`zbekiston eksportida yuqori ulushga ega bo`lgan hamkor davlatlar nomi ham ma`lum qilindi. Unga ko`ra yanvar oyida Afg`onistonga \$37,6 mln qiymatdagi tovar, mahsulot, xizmatlar taqdim etilgan[15].

Bundan tashqari Turkiy millatlar tashkiloti kabi aksar aholisi musulmon bo`lgan davlatlar bilan ijobiy iqtisodiy aloqalarni yo`lga qo`yish islomiy moliyalash instrumentlaridan foydalanish orqali mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish mumkin bo`lgan kapital miqdorini sezilarli oshirish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

#### Xulosa

O`zbekistonda xalqaro islom uyushmalari, ilmiy hamjamiyat, ta`lim muassassalari, islom bank-moliya kompaniyalari va guruhlarini o`zlarining tor milliy doirasidan

<sup>67</sup> [https://drive.google.com/file/d/1pGrNaQTPAFBYR3ABx8n8wVI4tDKk\\_ZM](https://drive.google.com/file/d/1pGrNaQTPAFBYR3ABx8n8wVI4tDKk_ZM)



tashqariga chiqishi va islom moliya tizimini amaliyotda tadbiq etgan mamlakatlar tajribasini fuqarolar va milliy davlat idoralari, moliya bozori qatnashchilari va rahbarlar orasida keng targ'ib qilishi va bu orqali islom moliyasi mazmunini anglash va tushunish darajasini oshirishi kerak. Islom moliyasi instrumentlari joriy etilgan mamlakatlarda samarali va uzluksiz faoiyat yuritmoqda. Islom bankchiligi va islom moliyasi instrumentlarini tashkil qilish orqali aksar aholisi musulmon bo'lgan mamlakatda samarali faoliyat olib borish va mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ijobiy ta'sir etishi imkoniyati mavjud. Buning uchun tegishli tashkilotlar an'anaviy iqtisodiy tizim va islom moliyasi integratsiyasini ta'minlovchi kerakli qonun hujjatini ishlab chiqarishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Р. И. Беккин. Ислом иқтисодий модели ва замон. Т.: «Ўзбекистон» НМИУ.
2. <https://muftitaqiusmani.com/en/Books/an-introduction-to-islamic-finance/>
3. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2665>
4. <https://www.qardus.com/news/the-islamic-financial-services-industry-statistics#:~:text=Currently%2C%20the%20Islamic%20finance%20sector,over%202.7%20trillion%20USD%20globally.>
5. <https://www.qardus.com/news/the-islamic-financial-services-industry-statistics#>
6. E.A. Baydaulet. “Islom moliya asoslari”, “O'zbekiston” Toshkent 2019y
7. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni parlamentga qilgan Murojaatnomasida
8. <https://alhudacibe.com/pressrelease142.php>
9. Pulatova M., Qulmamatov A. “O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish masalalari” Science and Education 3-1 (2022): 1079-1085. <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2450/2303>
10. [islommoliyasi.uz](http://islommoliyasi.uz)
11. [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/UZB\\_Landscaping-IF-in-Uzbekistan\\_final.pdf](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/UZB_Landscaping-IF-in-Uzbekistan_final.pdf)
12. <https://daryo.uz/2022/11/05/ozbekistonda-islomiy-moliya-yolga-qoyilsa-kattatnatijalarga-erishish-mumkin-xalqaro-ekspert/>
13. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/>.
14. [https://drive.google.com/file/d/1pGrNaQTPAFBYR3ABx8n8wVI4tDKk\\_ZM7/view](https://drive.google.com/file/d/1pGrNaQTPAFBYR3ABx8n8wVI4tDKk_ZM7/view)
15. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/>
16. Байдаулет Е. Исломий молия асослари Х.Хасанов таҳрири остида “OZBEKISTON” НМИУ- 2019. // URL: <http://e-library.namdu.uz/Elektron>
17. Аббасов С. Ислом молияси: Ўзбекистон учун янги имкониятлар // Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 146-159.